

TURAR JOY MAJMUASIDAGI BINO VA INSHOOTLAR QURILISHI ISHLARINING GEODEZIK TA'MINOTI ("UZMAXAL" TURAR-JOY MAJMUASI QURILISHI MISOLIDA)

Toshkent arxitektura qurilish unversiteti

Katta o'qituvchi: Kenjayev Ulug'bek Abdulakimovich

Talaba: Umaraliyev Asadbek Qambarali o'g'li

4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada uy-joy qurilishida bajariladigan geodezik ishlarni ta'minlash uchun geodezik asos yaratish va ularni aniqligini baholash haqida so'z yuritilgan.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы создания геодезической основы и оценки ее точности для обеспечения геодезических работ, выполняемых в жилищном строительстве.

Annotation: The article examines the issues of creating a geodetic basis and assessing its accuracy to ensure geodetic work carried out in housing construction.

Kalit so'zlar: Geodezik qidiruv ishlar, elektron taxeometr, nivelir, poligonometriya tarmog'i, balandlik tarmog'i, geodezik usul, poligonometriya punkti.

Ключевые слова: Геодезическая съемка, электронный тахеометр, нивелир, полигонометрическая сеть, высотная сеть, геодезический метод, полигонометрический пункт.

Keywords: Geodetic survey, polygonometrik network, altitude network, geodetic method, polygonometrik point. electronics total station,

Kirish qismi. Xalqimizga munosib turmush sharoiti yaratish maqsadida Respublikamizning barcha hududlarida yangi uy-joylar barpo etilmoqda. Shu bilan birga, odamlarning xarid imkoniyatini kengaytirish maqsadida to'rt yil oldin ipoteka tizimining bozor tamoyillariga asoslangan yangi tartibi joriy qilindi. Unga muvofiq, o'tgan davrda barcha manbalardan 100 trillion so'm mablag' yo'naltirildi.

Bularning hisobiga hududlarda 6 mingta ko'p qavatli turar joy binolari barpo etilib, 250 ming oila yangi boshpanali bo'ldi. Daromadi yuqori bo'lmagan 45 mingta oilaga boshlang'ich badal va foiz to'lovi uchun 2,4 trillion so'mlik subsidiyalar berildi.

Jumladan, o'tgan yili mamlakatimiz bo'yicha 85 mingta yoki 2022-yilga nisbatan 1,5 barobar ko'p xonadon qurildi. Aholiga 17 trillion so'mlik ipoteka kreditlari ajratildi.

Aholi sonining o'sishini inobatga olib, bunday ishlar izchil davom ettirilmoqda. Xususan, joriy yilgi dastur doirasida 100 mingta uy-joy qurish rejalashtirilgan.

Asosiy qism: Hozirgi davrda tuzilayotgan planlarning aksariyat qismi kadastr planlari bo'lib, ularda xususiy va davlat mulki, o'rmon, yer, suv havzalari tasvirlanadi va ularning tannarxi va sifati haqidagi to'liq ma'lumotlar keltiriladi.

Yirik masshtabli plan olish maydon hajmiga bog'liq ravishda stereotopografik, taxeometrik, teodolit bilan plan olish va maydonni nivelirlash usullari yordamida amalga oshiriladi. Yirik masshtabli planlarda plan olish usulidan qat'iy nazar joyning relyefi otmetkalar bilan birga gorizontall orqali ifodalanadi, temir va avtomobil yo'llari, elektr uzatish tarmoqlari, quvur o'tkazgichlar, kanallar, daryolar va boshqalar o'z shartli belgilari bilan to'liq ko'rsatiladi.

Planli va balandlik syomka asoslari joyda mavjud geodezik asosni yirik masshtabli topografik syomkalarni ta'minlash darajasigacha zichlab yetkazish maqsadida quriladi. Syomka asosi davlat geodezik tarmoqlari, 1-va 2-razryad zichlash poligonometriya tarmoqlari punktlarida rivojlantiriladi. Maydoni 1 km² gacha bo'lgan joylarda syomka asosi tarmog'i mustaqil tarmoq sifatida qurilishi mumkin. Planli syomka tarmoqlari teodolit yo'li yoki yo'llar sistemasi, mikrotriangulyatsiya va diagonalsiz to'rt burchaklar tarmoqlari hamda geodezik to'g'ri va teskari kesishtirishlarni bajarish orqali quriladi. Bunda ushbu tarmoqlar nuqtalari balandligi birdaniga aniqlanadi.

Bizga geodeziyadan ma'lumki har qanday barpo etiladigan geodezik tarmoqlar o'zidan bir pog'ona yuqori tarmoq punktlariga bog'lanishi lozim. Obyekt sifatida Toshkent shaxarda joylashgan "Uzmaxal" turar-joy majmuasi qurilishini geodezik

ta'minlash uchun planli va balandlik tarmoqlarini yaratish jarayonlarini ko'rib chiqamiz.

Buning uchun obyektida geodezik qidiruv ishlarini olib borish muhim boshlang'ich ish sifatida bajariladi. Qidiruv ishlari natijasida qurilish obyektiga yaqin joylashgan quyidagi geodezik punktlarni toppish mumkin, bitta 98-markadagi IV-klass triangulyatsiya punkti, ikkita 158-markadagi IV-klass poligonometriya punkti joyda mavjud bo'lishi bu bajariladigan geodezik ishlarning aniqligini ta'minlaydi.


Joyda mavjud geodezik punktlar haqida ma'lumotlar

1-jadval

№	Punktlar nomlari va tiplari	Klass, razryad	Koordinatalar		Balandligi H
			X	Y	
Dastlabki geodeziya punktlari					
1	Katta darxon, tip 98	IV-Tr	8955.055	2629.217	488.188
2	p.p. 19150, tip 158	I p	8838.801	2991.989	453.521
3	p.p. 19151, tip 158	I p	8590.080	2083.187	444.548


Tuara-joy majmuasi hududida olib borilgan geodezik qidiruv ishlari natijasida topilgan yuqoridagi geodezik punktlarga tayangan holda obyektning maydon hajmidan kelib chiqib, 2-razryad poligonometriya tarmog'i va 4-klass nivelir tarmoqlarini barpo etdishi mumkin.

2-razryad poligonometriya tarmog'ida jami 15-ta yangi tip 158 markadagi geodezik punktlar o'rnatildi.



1- rasm 2-razryat poligonometriya tarmog‘i

Uy-joy qurilishini geodezik ta‘minlash ishlarida balandlik asos ham muhim o‘ringa ega shuni inobatga olib, biz yaratilgan poligonometriya tarmog‘i bo‘ylab 4-klass nivelirlash tarmog‘ini ham barpo etdik.



2- rasm 4-klass nivelirlash tarmog‘i

Xudud bo‘ylab 4-klass nivelir yo‘lining umumiy uzunligi 2.541 km ni tashkil etdi.

Ushbu yaratilgan geodezik asosdan foydalanib “Uzmaxal” turar-joy majmuasida bajariladigan barcha geodezik ishlar ya’ni joyning topografik syomkasi, qurilish xududining qizil chegarasi, binolarni loyixasini joyiga ko‘chirish, turar-joy binolarini yer osti va yer usti qismida bajariladigan geodezik ishlar, qurilish xududida barcha yer osti komunikatsiyalarini yotqizish ishlarida, ichki yo‘llari shakllantirishda, xamda xududni ko‘kalamlashtirish ishlarida geodezik asos sifatida foydalanishimiz mumkin bo‘ladi.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki ushbu maqolada Toshkent shaxar “Uzmaxal” turar-joy majmuasi qurilishida bajariladigan geodezik ishlar uchun geodezik planli va balandlik tarmoqlari barpo etish ko‘rib chiqildi.

Ushbu yaratilgan geodezik asos bo‘yicha xududda barcha turdagi bajariladigan geodezik ishlarni olib borish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muborakov H.M., Yusupjonov O.G'. “Geodezik rejalash ishlari aniqligini zamonaviy asboblardan foydalanib oshirish haqida”. ”. - Yer xaqidagi fanlar: Istiqbol va muammolar //Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari – Toshkent., 2017 y. 7-8 aprel.– b.212-214.
2. Muborakov X. Geodeziya. 4-nashri. – T.: “Cho'lpon”, 2017.
3. Avchiyev Sh. K. “Amaliy geodeziya” TAQI. Voris nashriyoti. 2010 yil.
4. Avchiyev Sh.K., Tashpulatov S.A. “Injenerlik geodeziyasi”. TAQI. 2014.
5. SHNQ 3.01.03-19 “Qurilishda geodezik ishlar qoidalari to‘plami”.Toshkent 2019.
6. В.В.Авакян “Прикладная геодезия” (Технологии инженерно-геодезических работ).Москва Вологда <<Инфра-Инженерия>> 2019 й.
7. <https://www.google.co.uz/>
8. <http://www.geodesist.ru>